



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

INGLIZ TILIDA OG`ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Murotova Dilhumor Mirodil kizi

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

murodovadilkhumor006@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178821>

Annotatsiya: Bugungi kunda dunyoning ikkinchi tiliga aylanib ulgurgan ingliz tili o'rganuvchilari uchun, "so'zlashish" ya'ni "og'zaki nutq" bo'limi bir qancha murakkab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada, bu muammolarga yechim topishga harakat qilinadi va eng asosiy usullari haqida batamom so'z yuritiladi, bundan tashqari, ayrim tajribalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: muhim manbalar (video, hikoya, lug'at...), nutq, talaffuz, hamkor darsliklar, artikl, nazariy va amaliy ko'nikmalar.

Hech birimizga sir emaski, yangi til o'rganuvchilar uchun "og'zaki nutq" bo'limi biroz qiyinchilik tug'diradi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin esa sekin-asta bu yangi tilga moslashib, mustaqil gapirishga harakat qilinadi. Biroq buni tezroq va qulayroq amalga oshirishni iloji bormikan? Albatta, bor keling birgalikda qisqa muddatda "og'zaki nutq" ni oshirishga yordam beruvchi 15 xil usulni ko'rib chiqamiz.

1. Video yoki multfilm

Odatda bir joydan boshqa joyga ko'chib o'tganingizda o'z shevangizni unutib yangi odamlarning gaplashish usuliga avtomatik ravishda nutqingiz moslashadi. Ishonasizmi, yo'qmi bu- haqiqat. Demak, birinchi usulimiz shunga bog'liq ekan. Aytmoqchimanki, ingliz tilida nuqtingizni rivojlantirish uchun hayotingizni ushbu til qamrab olishi kerak. Birinchi ishni esa qisqa va tushinishga oson video roliklar, multfilmlar tomosha qilishdan boshlaymiz. Bunda siz multfilm yoki videodagi ishtirokchilarning hatti-harakatiga qarab tarjima qilishga urinasiz. Sekin-sekin yangi so'zlar miyangizda harakatlar bilan saqlanadi. Ya'ni multfilmda "I wanna dance", degan juma ishlatildi va birdan raqsga tushishni boshladi. Keyinroq siz raqs tushganingizda yoki raqs tushayotgan biror odamni ko'rganingizda, albatta, miyyangizga "i wanna dance" jumlasini keladi. Ishonmaysizmi, unda sinab ko'ring!

2. Kichik hikoyalar



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ikkinchi usulimiz o'qish bilan bog'liq. Iloji boricha kichikroq hikoyadan boshlaganimiz ma'qul. Sababi, "Kichik qadamlar katta muvaffaqiyatlarga eltadi". Demak, kichik hikoya olamiz va uni ovozimizni chiqarib o'qishni boshlaymiz. Bizga notanish bo'lgan so'zlarni lug'atdan tarjima qilamiz. Hikoyani to'liq tushunganimzga ishonchimiz komil bo'lganidan so'ng o'zimizga qayta hikoya (retell) qilib aytamiz. Bu biroz murakkab jarayon bo'lishi mumkin lekin "so'zlashuv nutqi" ni oshirish uchun samarali usullardan biri hisoblanadi.

3. Lug'at yodlash

Lug'at yodlash deganda ayrimlar shunchaki yodlab ketishni tushinishadi biroq bu noto'g'ri. Lug'at yodlashda uchta asosiy vazifaga ahamiyat qaratmas ekanmiz, "Nega yodlagan so'zlarim esimda qolmayabti?", degan savolga aslo javob topa olmaymiz. Demak, birinchi vazifa: yodlash uchun 10 ta so'z oldingiz, deylik. Avval inglizcha-o'zbekcha qaytaramiz, keyin esa aksincha, o'zbekcha-inglizcha, qaytarib yodlaymiz. So'ng, yodlagan so'zlarimizdan esimizda qolganini biror varaqqa o'zbekchasini yozib chiqamiz va yoniga inglizchasini yozishga harakat qilamiz. Topa olmaganlarimizni qayta-qayta yodlaymiz. Shunday qilib, 10/10 ni varaqqa yoza olsak bu o'nta so'z hech qachon esimizdan chiqmaydi. Ikkinchi vazifa shundan iboratki, yodlayotgan so'zingizning sinonim, antonimlarini lug'atdan topishga harakat qiling. Uchinchi vazifa esa har bir yangi so'zga kichik gaplar tuzishga urining. To'g'ri, bu usul ham biroz murakkab va ko'p vaqt talab qiladi. Lekin muvaffaqiyatga osonlikcha erishilmaydi, axir.

4. Talaffuzni yaxshilash

Bu nimaga kerak? Siz tovushlarni noto'g'ri yoki tushunarsiz talaffuz qilar ekansiz, odamlar sizning fikrlaringizni tog'ri tushunish ehtimoli kamayadi. Buni yaxshilash uchun biror ingliz tili o'qituvchisiga, BBC podkastlariga, kino aktyorlari yoki ingliz tilida mukammal so'zlasha oladigan do'stingizga taqlid qiling. Aynan ularnikidek intonatsiyada, ularnikidek talaffuzda aytishga urinib ko'ring. Talaffuzingizni bexato qilganingizda sizni no'tog'ri tushunishlari ehtimoli kamayadi va so'zlashuv jarayonida o'zingizga bo'lgan ishonch ortadi.

5. So'zlashish uchun alohida vaqt shart emas!

Bu usul biroz o'ylantiradi, biroq bu ham sinovdan o'tgan. Demak, biz "og'zaki nutq" uchun alohida vaqt ajratmaymiz. Kundalik ishlarimiz davomida uni miyamizda shakllantiramiz. Ya'ni biror ish qilayotgan bo'lsak, deylik, "Hozir kitob o'qimoqchi edim, birdan, uy tozalashim kerakligi hayolimga kelib qoldi".



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Bu jumlaning hayolimizda tarjima qilishga urinib o'z ishimizda davom etamiz. " I am going to read a book but suddenly i remember that i have to clean my room". Xuddi shunday har bir qilayotgan ishimizning tarjimasini hayolimizda gapirib yuraveramiz.

Shu o'rinda 5-usulga bir misol keltirishni joiz ko'rdim. 8- sinf ukam dars qilishni xushlamaydi. Shu sabab ham bu usul aynan u uchun mos deb o'yladim va xuddi yuqorida aytganlarimni ukamga aytdim. Ertansi kuni qaraganimda, ukam maktabga tayyorlanyabti biroq, xonasidan xuddi kim bilandir suhbatlashyotgandek yuqori ovozda gapirayotgan edi. Quloq solganimda " Now, i have to go school. If i wouldn't go , my teacher might punish me". Tog'ri, bu usul ingliz tilini endi boshlaganlar uchun emas, albatta. Lekin ma'lum miqdorda bo'lsa ham ingliz tilida nutqni oshirishga yordam berishi aniq.

6. Nutqingizni tabiiy qiling.

Hech qachon biror "speech" qilmoqchi bo'lganingizda uni yozib olib so'ng, yodlab aytib bermang. Yodlangan "speech" aslo tabiiy bo'lmaydi. Uning o'rniga nima haqida gapirishingiz, ma'lumotlaringizning ketma-ketligini o'zbek tilida o'zingizga "note" qilib oling. Bu judayam samarali. Sababi, o'zbek tilida nimani gapirishingizni bilmasdan turib ingliz tilida chiroyli nutq yarata olmaysiz.

7. O'zingizga sherik toping

To'g'ri, har safar kimgadir "Kel ozgina men bilan ingliz tilida so'zlash", deb iltimos qilaverish ham noqulay. Havotir olmang, bunga ham yechim bor: o'zingiz javob bermoqchi bo'lgan savollarni audio qilib yozib olasiz, keyin esa to'xtatib-to'xtatib savollarga javob beraverasiz.

8. Mahsus darsliklar yoki programmalar.

Bilamizki, og'zaki nutqni rivojlantirish uchun judayam ko'p onlayn dasturlar mavjud. Ularning aksariyatlarida savollarga tahminiy javoblar yoki javob uchun fikrlar berilgan bo'ladi. Ularning har biridan foydalanib ko'rishimiz va fikrlarni aynan shu savollardan tashqari boshqalari bilan ham bog'lab foydalana bilishimiz maqsadga muvofiq bo'lar edi.

9. Jumlalarni bilib oling.

Ayrim jumlar borki, biz ularga hayotimiz davomida ham tez-tez duch kelamiz. Masalan "Aytmoqchimanki... - I mean that ...", "...qilmoqchiman - i am going to do ...", "...bo'lganimda edi- if i would...". Yuqoridagi jumlalarga turli xil gaplar tuzish mumkin. Shu kabi jumladan yodlab olar ekansiz, "speaking" da gap tuzish uchun muammoga duch kelmaysiz.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

10. Savol berishni o'rganish

Mutaxassislarning fikricha har qanday muvaffaqiyatli suhbatning kaliti- o'zingiz haqingizda kamroq gapirib, boshqalarning fikriga qiziqishdir. Bu nimani anglatadi? So'zlashish jarayonida ko'proq savol berishni o'rganing. Uning qiziqishlari, o'qishi, ishi va h.k. To'g'ri, bu jarayonda siz emas suhbatdosh ko'proq gapirishi mumkin lekin siz uning fikrlaridan g'oya olasiz. Gap strukturalarini "o'g'irlaysiz" .

11. Musiqa kuylash

Sevimli qo'shig'ingizni oling va matnini yozib chiqing. So'ng audio bilan birgalikda uni qaytarishga harakat qiling. Bu ham "speaking"ni o'stirishga, to'xtash va tutilib qolishlarsiz gapirishga yordam beradi.

12. O'zim bilan suhbat

Biror oynani oling va o'zingiz yaxshi tayyorlangan biror mavzunini oynaga qarab gapirishni boshlang. O'zingizga qarab gapirish biroz mushkulroq bo'ladi, albatta. Huddi katta sahnada gapirayotgandek hayajon bosadi. Lekin to'xtovsiz oynaga qarab gapirishga harakat qilaverar ekansiz, u hayajon ham yo'qoladi. Oynaga qarab gapirayotgan paytingizda hayajonlanmasangiz, siz katta davralarda ham o'zingizni yo'qotib qo'ymaysiz. Bilamizki, hayajonsiz gapirishni hamma ham eplay olmaydi. Bu usul hamingliz tilida ravon so'zlashishning kalitlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

13. Ovozingizni chiqarib o'qishni boshlang.

Talaffuzingizdagi kamchiliklar ba'zan ichingizda o'qib ketayotganingizda o'zingizga bilmasligi mumkin, bilinsa ham "hech kim eshitmaydi-ku deb" u xatolarga ko'z yumib o'tib ketganingizni o'zingiz bilmay qolasiz. Lekin ovozingizni chiqarib o'qiganingizda undagi muammolarni o'zingiz eshtasiz va to'g'rilashga harakat qilasiz. But to'g'ri so'zlashishga shu bilan birga, talaffuzning chiroylilashishiga yordam beradi.

Shu o'rinda 13- usulga bir misol ko'rsatib o'tsam: sinfda 15 bola o'rtasida bir hikoya ustida sinab ko'rildi. Ya'ni bolalarning barchasiga kichik biroq so'zlari biroz murakkab hikoya taqdim etildi. Ularga topshiriq qilib ichida o'qib chiqish aytili. 90 foiz bola ikki daqiqa ichida o'qib bo'lganini bildirdi. Biroq endi navbat bilan ovozingizni chiqarib o'qiysiz, deyilganda har bir o'quvchi kamida 4, 5 daqiqada, so'zlarda oqsoqlanib o'qidi. Bu shuni ko'rsatadiki, ichingizda o'qiganingizda kamchiliklarga ko'z yumib o'tib ketish ehtimolingiz yuqori bo'ladi.

14. Ko'proq artikl o'qish



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Bu sizdagi "menda bu savolga fikr yo'q" degan muammoni yechishga yordam beradi. Sababi, bilamizki, artiklarda turli xil muammolar va ularga yechimlar olib chiqiladi. Siz ularni o'qiganingizda fikrlash doirangiz kengayadi va savollarga qiynalmasdan "idea" topa olasiz.

15. Faqat nazariy emas amaliyot muhim.

Bu nima degani? Yuqorida sizga 14 xil usul ko'rsatildi. Siz bularni o'qiganingizda " bunday qilishim kerak ekan, unday qilsam to'g'ri ekan", deyishingiz tabiiy hol. Biroq bu bilan ishimiz bitmaydi. Siz bularni iloji bo'lsa barchasini amalda sinasangizgina so'zlashish tarzingizda o'sish sezasiz. Aks holda yana og'zaki nutqimni ni qanday o'stirishim mumkin?", degan savol bilan yashayverasiz.

Xulosa qilib aytganda, harakat qilsangiz hech bir ishning qiyin joyi yo'q. Sizdan talab qilinadigan yagona narsa yuqoridagilar bilan muntazam ravishda bajarsangiz "speaking" sizga muammo bo'lmay qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.forumdaily.com/uz/kak-nauchitsya-govorit-po-anglijski-svobodno-i-gramotno-16-prostyx-sovetov/>
2. <https://www.sadikov.uz/uz/news/ingliz-tilida-gapirishni-qanday-boshlash-mumkin>
3. <http://abt.uz>